

**JADIDCHILIK HARAKATI: YANGILANISH VA MA'RIFATPARVARLIK YO'LIDAGI KURASH**

**Keldiyeva Shahnoza Shuhratovna  
Oblatoyeva Zahro  
Mo'minova Odina**

Andijon davlat pedagogika instituti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi: "Maktabgacha ta'lim" fakulteti "Logopediya" yo'nalishi 1-bosqich talabalari

**ANNATOTSIYA:** Biz bu maqolada jadidlarning jamiyatda tutgan o'rnini haqida fikr yuritamiz. Jadidchilik - bu XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston hududida yuz bergan ma'naviy va ma'rifatparvarlik harakatidir. Ushbu harakat ilm-fan, ta'lim, adabiyot va jamiyat tuzilishining yangilanishini maqsad qilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** jadid, marifatparvar, tarix, diniy, jadidchilik, ta'lim, isloh qilish.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: **جدید** - **jadīd** - yangi) — 19-asr oxiri 20-asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab 19-asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. 19-asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik ilk bor Qrimda 1980-yillarda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida paydo bo'lgan. Jadidchilik harakati vakillari ko'pincha o'zlarini ilg'or, keyinchalik jadidchilar deb atagan. O'sha davrning ilg'or kuchlari, ayniqsa, ziyolilar mahalliy aholining dunyodan ortda qolayotganini sezib, jamiyatni isloh qilish zarurligini anglab yetdi. Jadidchilik mohiyatan siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyat davrlari bor, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin.

Turkiston, Buxoro va Xivada bu davrlar 1895-1905 yillar, 1906-1916, 1917-1920, 1921-1929 yillarni qamrab oladi. Jadidchilik dastlab madaniy oqim sifatida faoliyat yuritgan. Bu tariqat vakillari taraqqiyot, turkiy tillarni rivojlantirish, bu tillarda adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, ayol va erkak tengligi uchun kurash olib borishga chaqirdilar. Keyinchalik jadidlar panturkizm g'oyalarini targ'ib qildilar. Jadidchilik sovet adabiyotida — burjuaz-liberal, millatchilik harakati sifatida ta'riflangan. Bu davrda SSSR parchalanib ketganidan keyin ko'proq tanqid qilingan. Ammo bunga qaramasdan jadid namoyandalarning nomlari qayta tiklandi.

Jadidlar, asosan, ta'lim, tarmoqlar, ijtimoiy adolat va zamonaviy g'oyalar sohasida islohotlar o'tkazishga harakat qildilar. Jadidlar, asosan, ta'lim, tarmoqlar, ijtimoiy adolat va zamonaviy g'oyalar sohasida islohotlar o'tkazishga harakat qildilar. Jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini isloh qilish bo'lgan. Jadidlar maktablarida o'quvchilarga an'anaviy diniy bilimlar bilan bir qatorda, zamonaviy fanlar ham o'qitilgan. Bular orasida matematika, tabiiy fanlar va tarix kabi fanlar ham bor edi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadid ziyolilari ushbu yangi uslubdagi maktablar tashkil etishda yetakchi rol o'ynagan.

**Adabiyot va San'atda Yangilanish**

Jadidchilik harakati adabiyot va san'atda ham o'z aksini topgan. Jurnallar, gazetalar va kitoblar nashr etish orqali jadidlar keng jamoatchilikni ma'rifatli qilishga, shuningdek, milliy ong va tafakkurni yuksaltirishga harakat qilganlar. Fitrat, Cho'lpon va Hamza Hakimzoda Niyozilarning asarlari yangi adabiy tilan shakllanishida muhim rol o'ynagan.

**Jamiyatdagi O'zgarishlar**

Jadidchilik harakati nafaqat ilmiy va adabiy sohalarida, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham o'zgartirishga intilgan. Jadidlar ayollarni ta'lim olishga undash, jamiyatdagi gender tengsizligiga qarshi kurashish kabi ijtimoiy masalalarda faol bo'lganlar.

**Xulosa**

Jadidchilik harakati Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu harakat

ma'rifatparvarlik, ilmiy va adabiy yangilanishlarni rag'batlantirish bilan birga, o'zbek jamiyatining zamonaviy rivojlanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham jadidchilikning ta'lim va madaniyatdagi qarashlari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yana bir qator jadidlarimiz Vatan ozodligi va el ravnaqi uchun tish tirnoqlari bilan harakat qildilar. Bularni har gal esga olganimizda yuragimizda bir ajib his-tuyg'uni sezamiz va ko'zlarimizga yosh keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Keldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. Interpretation and researches, (4 (26)).
2. Shaxnozaxon, K. (2023). JADID MA'RIFATPARVARCHLIK NAMOYONDALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY, FALASAFIIY QARASHLARI. World scientific research journal, 15(1), 234-238.
3. Shaxnozaxon, K. (2023). JADID ZIYOLILARINING MILLIIY MA'NAVIY ATIMIZDAGI AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(7)
4. Zaynobiddin Abdurashidov (2021) TURKISTONDA JADIDCHILIK